

HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MATNLARARO ALOQA

Tursunoy SHARIPOVA

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbek tili va adabiyoti folklori instituti tayanch
doktoranti*

Sharipovaturunoy316@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677294>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek she‘riyatida gorizontaal va vertikal matnlarning aloqalarning kiritilishi, yozuvchi ijodida intertekstual matnlarning ahamiyati kabi masalalar ochiqdangan. Postmodern adabiyot vakillarining intertekstuallik bo‘yicha nazariy qarashlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Postmodern adabiyot, san‘at, intertekstuallik, gorizontaal va vertikal tahlil, reminissensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются такие вопросы, как введение горизонтальных и вертикальных интертекстуальных связей в современную узбекскую поэзию, значение интертекстуальных текстов в творчестве писателя. Освещены теоретические взгляды представителей постмодернистской литературы на интертекстуальность.

Ключевые слова: постмодернистская литература, искусство, интертекстуальность, горизонтальный и вертикальный анализ, воспоминания, цитата.

Abstract. This article discusses issues such as the introduction of horizontal and vertical intertextual connections in contemporary Uzbek poetry, the importance of intertextual texts in the work of the writer. The theoretical views of representatives of postmodern literature on intertextuality are highlighted.

Keywords: Postmodern literature, art, intertextuality, horizontal and vertical analysis, reminiscence.

Postmodernizm vakillari intetekt g‘oyasi va nazariyasi sintezi masalasini ham chetlab o‘tmadi. Bu rassomlarning tafakkurining o‘ziga xos turi, matn yaratish uslubi, dunyoning badiiy rasmini o‘ziga xos shakllanishi bilan bog‘liq. Postmodenizm uslubida yaratilgan badiiy matnlar, asosan, muallifning turli xil adabiy uslublar, janr shakllari va badiiy yo‘nalishlarini kinoyali taqqoslashga ongli munosabati bilan ajralib turadi. San‘at – bu aloqa qoidalariga bo‘ysunadigan tuzilma bo‘lib, u so‘zlashuv akti va adresat predmetini nazarda tutadi. Zamonaviy madaniyat matnni tuzatish shakllarini ko‘paytirib, ayni paytda doimo yangilik izlaydi. Yangi va an‘anaviy dinamik sintezga kiradi, bu asosan yangi ma‘nolarni ishlab chiqarish uchun javobgardir. Darhaqiqat, ma‘no ishlab chiqarish xotiraning “kurashi” va uni yengishida yotadi. Tarix matn tuzilishiga semantik element sifatida kiritiladi. Bu holatni XX asr san‘atining ko‘plab novatorlari, rus akademiklaridan tortib Borxesgacha chuqur anglab yetgan va ular paradoksal tarzda shunday deganlar: “Faqat to‘rtta hikoya bor. Bizda qancha vaqt

qolishidan qat’iy nazar, biz ularni u yoki bu shaklda takrorlaymiz”[3,15] U yoki bu muallifni o‘qiyotgan holda, mutaxassis boshqa mualliflar tomonidan unga ta’sir qilgan va to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki yashirin iqtiboslar ko‘rinishida namoyon bo‘lgan ta’sirlarni osongina kashf etadi. Asar tarix va jamiyat hayotiga kiritilgan, ilgari yaratilgan matnlar, o‘z navbatida, yozuvchi o‘qigan va qayta yozgan holda “o‘zaro bog‘langan” matn sifatida qaraladi. Mutaxassislar matnlararo bog‘liqliklarni ikkita asosiy turini, ya’ni iqtibos va havolani ajratadilar. Matnlararo aloqa vositasi bo‘lgan iqtibosdan foydalanilganda ma’lum bir asl matndan olingan parcha shakllantirilayotgan matn tarkibidan o‘rin oladi. Boshqa olimlar ishlaridan iqtibos keltirilayotgan muallif fikr ifodasining eng qulay usulini topishga harakat qiladi. Bunda qisqa shakldagi iqtiboslarni keltirilishi ko‘pincha baho ma’nosiga ega bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalari vositasida bajariladi. [2,70].

Hozirgi o‘zbek shariyatidan ayrim matniy aloqalarni ko‘rib, tahlil qilib chiqsak: O‘zbek she’riyatining zabardast vakili E. Vohidov ijodidagi “*Tola soch*” she’riga diqqat qaratamiz:

*Soch meni devona etgay,
Yo magar shoir qilur,
“Ul pari avlodidanmu,
Yo bashar farzandimu?”*

Bu banda ajratib ko‘rsatilgan satrlar shoir Habibiy qalamiga mansub bo‘lib, ushbu she’rning epigrafiga ham xuddi shu satr tanlab olingan. O‘zga shoir she’ridan aynan qism kiritib, o‘zining she’riga birlashtiradi va shu o‘rinda ushbu misrani o‘zga shoir ijodidan kiritganligini ham o‘quvchiga sezdirib o‘tadi. Zamonaviy adabiy tanqidda “intertekstuallik” atamasi keng qo‘llaniladi va juda ommalashgan. Bu ko‘pincha matnlararo aloqalarning umumiy to‘plamiga ishora qiladi, ular nafaqat ongsiz, avtomatik yoki o‘z-o‘zidan etarli bo‘lgan o‘yin iqtiboslarini, balki oldingi matnlar va adabiy faktlarga yo‘naltirilgan, mazmunli, baholovchi havolalarni ham o‘z ichiga oladi.

Erkin Vohidov ijodida xuddi irsoli masal she’riy san’atini eslatadigan ijod namunalari ham bor:

*Ko‘yida men tosh boshimni
Urmagan ostona yo‘q,
Elda bor shunday masal:
Jon chekmasang jonona yo‘q.*

Irsoli masal (ar. Maqollar, masallar kiritish) – mumtoz adabiyotdagi she’riy san’atlardan biri, she’rda ma’lum bir poetik maqsadda mashhur maqol, matal yoki

hikmatli soʻz keltirish. [1,123]. Yuqoridagi sheʼrga kiritilgan maqol “Jon chekmasang jonona yoʻq” maqolidir. Ushbu maqol sheʼr talabi bilan matnga hamohang singdirilgan. Shunga oʻxshash sheʼrlaridan yana biri “*Masal borkim...*” deb nomlanadi.

Ajab vaslingga men endi

Yetishganda koʻrindi moh,

Masal borkim, ogʻiz oshga

Burun toshga tegibdur voh!

Bu yerda qoʻllangan maqol “ogʻiz oshga yetganda burun toshga yetdi” ni sheʼriy usulda matnga jamlagan. Ushbu sheʼr oxirigacha maqollardan tashkil topgan boʻlib, yana quyidagi maqollar kiritilgan: “*Degaylar, Oʻzgadin kulma oʻzingdan boʻlmay ogoh*” (*Oʻzingga boqmasdan, oʻzganing ustidan kulma*), “*Oʻzi tushgay emish oxir Birovga kimki qazgay choh*” (*Kimki birovga choh qazisa, oʻzi tushadi*), “*Oʻzingga dedilar, dushman Keyin chekkan pushaymon oh*” (*soʻnggi pushaymon oʻzingga dushman*) maqollari matnga singdirilgan. “*Bir yolgʻondan qirq yolgʻon*” sheʼrida ham aynan maqol keltirish sanʼatidan foydalanilgan:

Derlar: oʻgʻlon yoshidan,

Menga haqiqat doya.

Umrinni bir boshidan

Qilay sizga hikoya.

Sheʼrda keltirilgan maqol: “*Bola boshdan*” maqoliga toʻgʻri keladi. Shoirning “*Boshindadir*” nomli sheʼrida esa hazrat Alisher Navoiyning “*Oʻn sakkiz ming olam oshibu agar boshindadir*” nomi bilan boshlanuvchi gʻazaliga moslab kulgi shaklida yozilgan.

Oʻn sakkiz ming olam oshibu

Padar boshindadir,

Ne ajab, chun oʻgʻli oning

Oʻn sakkiz yoshindadir.

“*Yoʻqolgan sheʼr*” nomli sheʼrida allyuziv nom va reminissensiya uchraydi.

Bamisoli yor tasvirini

Oyinada koʻrgandek Farhod.

Allyuziv nom sifatida Farhod obrazi kiritilgan va asarda Farhod yor tasvirini oynada koʻrganligi voqealari jonlantirilgan. Shoirning “*Vafo*” nomli sheʼri Zulfiyaga bagʻishlangan boʻlib, epigrafiga Zulfiyaning “*Sogʻinganda izlab bir nishon*” satrlari bilan boshlanuvchi sheʼri epigraf sifatida olingan. Epigrafni oʻqigan oʻquvchiga maʼlum

bo‘ladiki, ushbu she‘rda Zulfiyaning matonati, Hamid Olimjon xotiasiga sodiqligi haqida so‘z borgan. Bu she‘rda shunday jumlar mavjud:

Sen baxtlar vodiysi atagan diyor,

Ikki daryo yuvgan ikki kokilin –

Bu kun yeti iqlim maxzanicha bor,

Bu kun o‘n besh kunlik oy kabi to‘lgan.

Bu she‘rdagi ajratib ko‘rsatilgan “*Ikki daryo yuvar kokilin*” misrasi Hamid Olimjonning “*O‘zbekiston*” she‘riga ishoradir.

Tobora ketmoqda yoshlik yiroqlab,

Lahza orom bilmas hanuz dil sensiz.

Har bahor kelganda seni so‘roqlab, -

Olamda yaashabman o‘ttiz yil sensiz.

Ushbu banddagi “***Har bahor kelganda seni so‘roqlab***” misrasi Zulfiya qalamiga mansub “*Bahor keldi seni so‘roqlab*” she‘ridan olingan. Shu she‘rning ikkinchi bo‘limi esa Hamid Olimjonning Zulfiyaga aytgan dil izhori sifatida bitilgan. She‘r epigrafiga Hamid Olimjonning “*Xalqqa ayting Men aslo o‘lganim yo‘q*” misrasi tanlab olingan. Ushbu she‘rlarda Hamid Olimjon va Zulfiyaning eng mashhur va yurak dardlariga yaqin she‘rlaridan misralar tanlab olinib, joylangan va she‘r matniga singdirilgan. Masalan,

Men uchun ham yasha,

Kuyla, shoiram!

O‘zing aytganingdek,

Yorug‘ dunyoda

Sen hayot ekansan -

Hayotman men ham!

Go‘yo Hamid Olimjon tilidan aytilgandek ta‘sirchan ozilgan ushbu she‘rning oxirida kelirilgan misra Zulfiyaning “*Bahor keldi seni so‘roqlab*” she‘ridagi “*To hayot ekanman, Hayotsan sen ham!*” misrasini yodga soladi. Adabiyotimizning yana bir yorqin namoyondasi Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham matniy aloqalarni tekshirib ko‘rsak: Shoira qalamiga mansub “*Fikr*” she‘rida:

Bu dunyoga kelib mening topganim ham mo‘l,

Men so‘z topdim, fikr topdim, bu ham balki baxt.

Nodiraning xayolidan kechgan, balki ul

Balki Mashrab aytaman deb topolmagan vaqt.



Nodira, Mashrab singari ijokorlar kiritilgan va reminissensiya orqali intertekstuallik hodisasi yuzaga chiqqan. Shoira she'rida ushbu ijodkorlarni eslatib o'tgan.

Umuman olganda, hozirgi o'zbek adabiyotida vertikal va gorizontal usullarda matnlararo aloqa mavjud. Ya'ni o'z zamondoshlarining matnlarini va tarixiy-madaniy xotiralarni yangi matnlariga kiritish hollari uchraydi. Bu esa o'z navbatida intertekstuallik hodiasining keng qamrovli tushuncha ekanligini ko'rsatadi, ijodkor asarining badiiy estetik qiymatini belgilash bilan bir qatorda o'quvchi xotirasida ushbu matnlarni idrok etilishi ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Д. Куронов ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. Тошкент. Akademnashr. 410 b.
2. Ochilova Nilufar Nomozovna. ИЛМИЙ МАТННИНГ КАТЕГОРИАЛ БЕЛГИЛАРИ. // СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ.2021. 4 ЖИЛД, 2 СОН. 70- b.
3. Ямпольский, М. Память Тиресия. Интертекстуальность и кинематограф. М.: РИК «Культура», 1993,— 15- с.
file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/Yampolskiy_Pamyat_Tiresiya_Intertekstualnost_i_kinematograf_408569.fb2
4. <https://lit.wikireading.ru/43769>